

“AKSILKORRUPSIYA ALIFBOSI”



Toshkent – 2022



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
KORRUPSIYAGA QARSHI
KURASHISH AGENTLIGI



Mazkur illyustratsiyali atamalar va tushunchalar to'plami O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi, Bosh prokuraturasi, Korruptsiyaga qarshi kurashish agentligi va BMT Taraqqiyot Dasturi loyihalari bilan birgalikda **“Fuqarolik jamiyati institutlarini korruptsiyani oldini olish va unga qarshi kurashishda innovatsiyalarni ishlab chiqish va joriy etish jarayoniga jalb qilish”** qo'shma tanlovi doirasida “Muloqot” jamoat birlashmasi tomonidan yaratildi.



JAMOAT BIRLASHMASI

WWW.MULOQOT-NGO.UZ

“Muloqot” nodavlat notijorat tashkiloti Toshkent shahrida joylashgan. Tashkilot O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2018-yil 23-aprelda ro'yxatga olingan bo'lib, u davlat organlari va xalqaro hamkorlar bilan birgalikda ijtimoiy-iqtisodiy, ta'lim, madaniy-gumanitar loyihalarni amalga oshirish bilan shug'ullanadi. Tashkilot davlat va jamiyat o'rtasidagi muloqot uchun ishonchli ko'priklar vazifasini bajarishni o'z oldiga maqsad qilgan.

Ushbu to'plamda keltirilgan ijodiy ishlar bo'yicha mualliflik huquqi “Muloqot” jamoat birlashmasiga tegishli. Suratlarida aks ettirilgan talqinlar biron bir kasb egalari kamsitish yoki obro'sizlantirish maqsadida yaratilmadi. Qolaversa, tasvirlangan epizodlar loyiha tashabbuskorlarining rasmiy pozitsiyasi va nuqtai nazarlariga mos kelmasligi mumkin.

© “Muloqot” jamoat birlashmasi

M U N D A R I J A

| | |
|---|----|
| A ksilkorruptsiya | 4 |
| “ B unker” | 6 |
| D eklaratsiya | 8 |
| F avoritizm | 10 |
| “ H alollik vaktsinasi” | 12 |
| I qtisodiy korruptsiya | 14 |
| J inoiy javobgarlik | 16 |
| K orruptsiya | 18 |
| L obbizm | 20 |
| M anfaatlar to'qnashuvi | 22 |
| N epotizm (tanish-bilishchilik) | 24 |
| N osog'lom raqobat | 26 |
| O ligarxiya | 28 |
| P oraxo'rlik | 30 |
| Q albakilashtirish | 32 |
| R eyderlik (noqonuniy o'zlashtirish) | 34 |
| “ S uyunchi” | 36 |
| Korruptsiyaviy S xemalar | 38 |
| T a'magirlik | 40 |
| U rug'-aymoqchilik | 42 |
| V ositachilik qilish | 44 |
| Davlat X aridlari | 46 |


AKSILKORRUPSIYA

Aksilkorrupsiya – korrupsiya darajasini pasaytirish, korrupsiya bilan bog‘liq omillarni (oldini olish, bartaraf etish, tugatish va hokazolarni) kamaytirishga qaratilgan davlat organlari, mansabdorlari, fuqarolik jamiyati institutlari, tadbirkorlar va xususiy sektorning korrupsiya holatlarini fosh etish va bartaraf etishga oid faoliyatlari hisoblanadi. Korrupsiyaga qarshi kurashishda nafaqat sud, huquq-tartibot organlari vakillari, balki jamoat tashkilotlarining faollari, jurnalistlar, blogerlar va oddiy fuqarolar tashabbus ko‘rsatishi mumkin.

“Agar korrupsiyani yo‘q qilmoqchi bo‘lsangiz dastlab o‘zingizning eng yaqin uch nafar do‘stingizni fosh qiling. Siz nimaga shunday qilayotganingizni aniq bilasiz, ular ham huddi shunday – nimaga fosh qilinganini aniq bilishadi.”

Li Kuan Yu, Singapurning sobiq bosh vaziri

Milliy va xalqaro qonunchilikda korrupsiyaga qarshi kurashishga qaratilgan qonunlar mavjud. Ular xalqaro tashkilotlarning muayyan rezolyutsiyalarga tayangan holda ishlab chiqilishi mumkin, hukumatlar tomonidan ushbu qarorlar ratifikatsiya qilinganidan so‘ng amalga oshiriladi yoki to‘g‘ridan-to‘g‘ri tegishli milliy qonunchilikka asoslangan holda ishlab chiqiladi.



“BUNKER”

“Bunker” – oldindan tashkillashtirilgan bir guruh o‘qituvchilar, a‘lochi talabalar, tajribali abituriyentlarning oliy (universitet va institutlar) yoki o‘rta-maxsus (kollej, texnikum va kasb-hunar maktablari) ta‘lim dargohlariga “buyurtmachi” abituriyentni o‘qishga kirishiga yordam berish maqsadida bir xonaga yig‘ilib olib, haq evaziga abituriyentlarning test savollariga to‘g‘ri javoblarni topib beruvchi joyga nisbatan aytiladi.

O‘zbek jamiyatida “bunker” tushunchasi allaqachon ta‘lim dargohiga o‘qishga kiruvchi abituriyentlarning lug‘atiga mustahkam o‘rnashib oldi. Ayrim paytlarda, katta pul ishlash maqsadida ta‘lim dargohinig mutasaddi vakillari ham bu jinoiy guruhga qo‘shilib qoladi.




DEKLARATSIYA

Deklaratsiya atamasi fransuzcha “*déclaration*” so‘zidan kelib chiqqan bo‘lib, “bayon qilish”, “ma‘lum qilish” degan ma‘nolarni bildiradi. Davlat va jamiyat boshqaruvida korrupsiyaviy omillarni keskin kamaytirish maqsadida, O‘zbekistonda davlat xizmatchilari, davlat ulushi 50 foizdan yuqori bo‘lgan tashkilotlar, davlat korxonalari va muassasalari rahbarlari va o‘rinbosarlari, ularning turmush o‘rtog‘i va voyaga yetmagan farzandlarining daromadlari va mol-mulkini majburiy deklaratsiya qilish tizimi

joriy etilmoqda. Unga ko‘ra, davlat xizmatchisi tomonidan deklaratsiyani taqdim etishdan bosh tortish va qasddan noto‘g‘ri ma‘lumotlarni kiritish uni davlat xizmatidan chetlashtirishga va qonunda belgilangan javobgarlikka tortishga asos bo‘ladi.

Shuni alohida ta‘kidlash kerakki, yangi joriy qilinayotgan tizimga muvofiq, davlat xizmatchilariga respublika hududidan tashqarida hisobraqamlar ochish va egalik qilish, naqd pul mablag‘larini saqlash, ko‘chmas va boshqa mol-mulkka ega bo‘lish taqiqlanadi (xorijda ishlayotgan davlat xizmatchilari va davlat xizmatiga kirishdan oldin olingan mol-mulk bundan mustasno). (O‘zbekiston Respublikasining “Davlat fuqarolik xizmati to‘g‘risida”gi qonuni).

Boshqa o‘zgarishlar qatori, yangi tizimda daromadlar va mol-mulknii deklaratsiyalash jarayonida aniqlangan noqonuniy boylik orttirganlik uchun javobgarlik o‘rnatish belgilangan.



FAVORITIZM


Favoritizm atamasi fransuzcha “*favoritisme*” va lotincha “*favor*” so‘zlaridan kelib chiqqan bo‘lib, “moyillik” degan ma‘noni bildiradi. Favoritizm – rahnamolik ko‘rsatish yoki himoya ostidagi ayrim xodimlarni yaqin olish va qo‘llab-quvvatlash ma‘nolarini bildiradi.

Ba‘zida rahbarlar o‘z qo‘l ostidagi ayrim xodimlarni boshqalarga qaraganda o‘ziga yaqinroq oladi, ular bilan juda do‘stona munosabatda bo‘la-



di. Ko‘p hollarda favoritizm ishxonadagi ishchi muhitni buzadi, hamkasblar o‘rtasida bo‘linishlarga olib keladi va korrupsiyaviy holatlarni keltirib chiqaradi.

Odatda favoritizm quyidagi ko‘rinishlarda namoyon bo‘ladi: lavozimi bo‘yicha ko‘tarish, mukofotlarni hisoblash va davlat mukofotlariga tavsiya qilish, mehnat ta‘tillari berish yoki sanatoriyalar va xorij safarlariga yuborish, murojaatlarni ko‘rib chiqish navbatini, shuningdek, ish vaqti va navbatchilik grafiklarini belgilash shular jumlasidandir.



“HALOLLIK VAKSINASI”

“Halollik vaksinasi” – korrupsiyaga qarshi kurashish chora-tadbirlari majmuasi. Bu atama ilk marotaba O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti-ning 2020-yil 24-yanvardagi Oliy Majlisga Murojaatnomasida tilga olingan. Korrupsiyaga qarshi kurashda adolat bosh mezon hisoblan- sa, mavjud qonunlarga amal qilish va ularga bo‘ysunish asosiy shartlar sirasiga kiradi. Bularga erishishning yagona yo‘li “halollik vaksinasi”dir.

Korrupsiyaga qarshi kurashishda eng muhim omil ma‘rifat sanaladi, chunki u orqali insonda bilim, “immunitet”, shuningdek, korrupsiyaga qar- shi oliy maqsadga mos keluvchi barqaror xulq-atvor me‘yorlarida o‘z ak- sini topgan tegishli ma‘naviy-axloqiy ehtiyojlar, insof, iymon-e‘tiqod, ha- lollik kabi sifat va hissiyotlarni shakllantiriladi.

Shu o‘rinda, halollik o‘zi nima degan tushunchani ham anglab olishimiz darkor. Halollik insonning asosiy fazilatlaridan biri bo‘lib, rostgo‘ylik, prin- siplarga sodiqlik, qabul qilingan majburiyatlarga sodiqlik, ishning to‘g‘ri ekanligiga subyektiv ishonch, inson boshqaradigan motivlarga nisbatan boshqalarga va o‘ziga nisbatan samimiylikni o‘z ichiga olgan axloqiy si- fatdir.



IQTISODIY KORRUPSIYA

Iqtisodiy korrupsiya – bu hokimiyat vakillarining tadbirkorlik subyektlari (ishbilarmonlar) bilan munosabatlarida ko‘proq uchraydi. Jumladan, aksariyat investitsion loyihalar yuqori mansabdor shaxslarning o‘z xohishiga ko‘ra qabul qiladigan qarorlar bilan belgilanadi. Yirik investitsiya loyihalari (ayniqsa, xorijiy korporatsiyalar ishtirokida) ko‘pincha tender g‘olibiga monopoliya huquqini berishni nazarda tutadi, ayniqsa bunday holatlarda amaldorlarga katta pora va‘da qilinadi.

“Korrupsiya – bu jamiyatni turli yo‘llar bilan iskanjaga oladigan dahshatli illatdir”.

Birlashgan Millatlar Tashkilotining korrupsiyaga qarshi kurash konvensiyasi. Nyu-York, 2004-yil.

Bundan tashqari, davlat xaridlari paytida ham amaldorlar tomonidan ayrim kompaniyalarning tanlovdagi yutug‘ini ta‘minlash uchun “komission pullar” (otkat) yoki mahsulot/xizmatlarning asl narxini baland ko‘rsatish holatlari ham iqtisodiy korrupsiyaning keng tarqalgan ko‘rinishi hisoblanadi.



JINOIY JAVOBGARLIK

Jinoiy javobgarlik – yuridik javobgarlik turlaridan biri, jinoyat sodir etishning huquqiy oqibati. Jinoiy javobgarlik aybdorga nisbatan jazolash shaklidagi davlat majburlov chorasini qo'llashdan iborat. Jinoiy javobgarlikka jalb etish jinoyat ishini qo'zg'atish, tergov qilishni va sudda muhokama qilishni bildiradi. Huquqiy davlatda jinoyat sodir etganlikda ayblanayotgan har bir shaxs ishi sudda qonuniy tartibda, oshkora ravishda ko'rib chiqilib, aybi aniqlanmaguncha u aybdor hisoblanmaydi. Jinoiy javobgarlikka tortish masalasi qonunlarning



tegishli moddalarini qo'llanish orqali hal qilinadi. Bu hol fuqarolar huquqlari va qonuniy manfaatlarini ta'minlashning muhim kafolati hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 16-moddasida jinoiy-javobgarlik tushunchasi berilgan bo'lib "u jinoyat sodir etishda aybdor bo'lgan shaxsga nisbatan sud tomonidan hukm qilish, jazo yoki boshqa huquqiy ta'sir chorasi qo'llanishda ifodalanadigan jinoyat sodir etishning huquqiy oqibatidir" deb ta'riflanadi.



KORRUPSIYA

Korrupsiya atamasi lotincha “*corruptio*” so‘zidan kelib chiqqan bo‘lib, “*buzish*”, “*sotib olish*” degan ma‘nolarni bildiradi. Korrupsiya – shaxsning o‘z mansab yoki xizmat mavqeidan shaxsiy manfaatlarini yoxud o‘zga shaxslarning manfaatlarini ko‘zlab moddiy yoki nomoddiy naf olish maqsadida qonunga xilof ravishda foydalanishi, xuddi shuningdek bunday nafni qonunga xilof ravishda taqdim etish.



“Korrupsiya – shaxsiy maqsadda foyda olish uchun davlat hokimiyatini suiiste‘mol qilishdir”

BMTning Korrupsiyaga qarshi kurashga oid ma‘lumotnomasidan

Abu Nasr Farobiy “Fozil odamlar shahri” asarida fuqarolik jamiyatini qurishda to‘g‘anoq bo‘ladigan muammolardan biri korrupsiyadir deb qayd etgan. Korrupsiyani turli xil darajalari mavjud: siyosiy korrupsiya, sud-huquq tizimidagi korrupsiya, iqtisodiy korrupsiya, maishiy korrupsiya va hokazo.



LOBBIZM

Lobbizm atamasi inglizcha “*lobbyism*” so‘zidan kelib chiqqan bo‘lib, “*kluarlar*”, “*hos xonalar*” degan ma‘nolarni bildiradi. Lobbizm – davlat idoralari, qonunchilik, ijroiya, sud hokimiyatlarining mintaqalar iqtisodiyoti ayrim tarmoqlari va sohalarini, korxonalar, ijtimoiy guruhlarni obyektiv zarurat taqozosi bilan emas, balki ma‘lum bir manfaatlarni ko‘zlab, ba‘zan mansabdor shaxslarni sotib olish yo‘li bilan qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan faoliyati hisoblanadi. Qisqacha qilib aytganda, lobbistlar hokimiyat vakillari qiyofasida o‘z himoyasidagilarga katta foyda beradigan davlat buyurtmalari, kreditlar, yordamlar, imtiyozlar, litsenziyalar olishda, iqtisodiy va tijorat faoliyatida, yangi korxonalar ochish va uni ro‘yxatdan o‘tkazishda, raqobatchilarni sindirishda qulay sharoitlar yaratishda ko‘maklashadi.

Demak, lobbizm, o‘z navbatida, qonun ijodkorligi niqobi ostida qabul qilinadigan qonunlar hisoblanadi. Bundan ko‘rinadiki, lobbistik faoliyat davlatdagi ijtimoiy adolat tamoyiliga ta‘sir qilib, qonunning qonuniy ravishda korrupsiyaga yoki muayyan shaxslarning manfaatiga xizmat qilishiga olib keladi.

Lobbistik harakatlar ko‘pincha mamlakat taraqqiyotiga halal beradi, jamiyatda amalga oshirilayotgan islohotlar samaradorligiga jiddiy putur yetkazadi.



MANFAATLAR TO'QNASHUVI

Manfaatlar to'qnashuvi – shaxsiy (bevosita yoki bilvosita) manfaatdorlik shaxsning mansab yoki xizmat majburiyatlarini lozim darajada bajarishiga ta'sir ko'rsatayotgan yoxud ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan hamda shaxsiy manfaatdorlik bilan fuqarolarning, tashkilotlarning, jamiyatning yoki davlatning huquqlari va qonuniy manfaatlari o'rtasida qarama-qarshilik yuzaga kelayotgan yoki yuzaga kelishi mumkin bo'lgan vaziyat (O'zbekiston Respublikasining "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi qonuni 3-moddasi).

Manfaatlar to'qnashuviga yo'l qo'ygan holda qabul qilingan qarorlar yoki tuzilgan bitimlar sud tartibida haqiqiy emas deb topilishi mumkin.



Manfaatlar to'qnashuvi kelib chiqishining asosiy sabablari qatoriga quyidagilarni kiritish mumkin:

- xodimning shaxsiy manfaatlari (masalan, mansabparastlik, ko'raolmaslik, past niyatlar, g'arazgo'ylik va boshqalar);
- xodimning yaqin qarindoshlari manfaatlari (biron-bir mavqeiga ega bo'lish, tanish-bilishchilikni yaratish, naf ko'rish yoki afzalliklarga ega bo'lish va boshqalar).



NEPOTIZM (TANISH-BILISHCHILIK)

Nepotizm atamasi lotincha “*nepos, nepotis*” so‘zidan kelib chiqqan bo‘lib, “*nevara*”, “*jiyan*” degan ma‘nolarni bildiradi. Nepotizm – o‘zining yaqin qarindoshlari yoki do‘stlariga asossiz imtiyozlar berish maqsadida hokimiyatdan foydalanish va (yoki) ta‘sir o‘tkazish, shu jumladan: yaqin qarindoshlari va (yoki) do‘stlariga asossiz mukofotlar hisoblash, davlat organlari va muassasalari manfaatlari zarariga yaqin qarindoshlari va do‘stlarini ishga qabul qilish va lavozimga tayinlash.

KADRLAR BO‘LIMI



“Menda ikkita yo‘l bor edi: birinchisi yurtni talash, qarindosh-urug‘larimni atrofimga yig‘ish, ularga mansab berish, ularni “Forbes” (dunyoing eng boy odamlari ro‘yxati e‘lon qilinadigan jurnal) ro‘yxatiga kiritish, buning evaziga xalqni hech narsasiz qoldirish. Ikkinchi yo‘l: o‘z xalqimga xizmat qilish va mamlakatni jahondagi 10 ta eng rivojlangan davlatlar safiga qo‘shish. Men ikkinchi yo‘lni tanladim”.

Li Kuan Yu, Singapurning sobiq bosh vaziri

Zamonaviy jamiyatda qarindoshlik yoki boshqa belgilariga ko‘ra muayyan mansabdor shaxsga nisbatan yoqori rahbar tomonidan ustunlik berish sifatida ko‘riladigan korrupsiya shaklidir. Nepotizm – bu jamiyatdagi korrupsiyaning eng havfli va yashirin shakllaridan biri. Uning ishtirokchilari o‘rtasidagi munosabatlar ishonchli “o‘zaro javobgarlikni” ta‘minlaydigan va korrupsiya bilan bog‘liq jinoyatlar bilan shug‘ullanuvchi maxsus qarindoshlar yoki ichki yaqinlik asosida quriladi. Begona odamlar “oila a‘zolari” uchun “oila” farovonligini shakllantirish va ta‘minlashda vosita yoki vositalar rolini o‘ynaydi.

QABULXONA



NOSOG'LOM RAQOBAT

Nosog'lom raqobat – umumiy qabul qilingan qoidalar va raqobat normalarining buzilishi. Uning mohiyati qonunlar va yozilmagan qoidalarni buzishdir.

Raqobat – bozor subyektlari iqtisodiy manfaatlarining to'qnashuvidan iborat bo'lib, ular o'rtasidagi yuqori foyda va ko'proq moddiy manfaatga ega bo'lish uchun kurashni anglatadi. Shu nuqtai nazardan, raqobat ham sog'lom, ham nosog'lom ko'rinishda bo'lishi mumkin.



Bozorni nochor holatga keltiradigan omillarga bir misol – bozor ustidan hukmronlik o'rnatish (monopoliya, kartellar). Bularning natijasida iqtisodiy samaradorlik pasayadi. Bu holatda davlat o'zining bevosita aralashuvi orqali bozordagi nosog'lom holatni yaxshilashi mumkin. Davlatning bunday – bozordagi nosog'lom raqobatni yo'q qilishga yo'naltirilgan ijobiy aralashuvi adabiyotda "davlatning ko'rinar qo'li" deb ham nomlanadi.



O LIGARXIYA

Oligarxiya atamasi yunoncha “*oligarchia*” so‘zidan kelib chiqqan bo‘lib, “*ozchilik hokimiyati*” degan ma‘noni bildiradi. Oligarxiya – bu davlat apparatidagi lavozimlar moliyaviy, moddiy, axborot va boshqa resurslarga ega bo‘lgan odamlar tomonidan egallangan holat. Bu holat siyosiy elitalarni biznes elitalar bilan birlashtirishga olib keladi. Natijada, ularda mamlakat aholisining manfaatlariga zid ravishda davlat va jamoatchilik nazoratini chetlab iqtisodiy hamda siyosiy loyihalarni rejalashtirish hamda amalga oshirish imkoniyati paydo bo‘ladi.

Umummilliy taraqqiyotga erishish yo‘lidagi eng katta xavf-xatarlardan biri – bu mamlakatdagi siyosiy hokimiyatning oligarxiya guruhlari ta‘siriga tushub qolishi hisoblanadi. Bunday holatda aholining hukumatga bo‘lgan ishonchi pasayadi, mamlakatning nufuzi tushib ketadi, iqtisodiy va ijtimoiy qiyinchiliklar yuzaga kela boshlaydi. Bir so‘z bilan aytganda, oligarxiyaning mavjudligi mamlakat boyliklarini nomutanosib taqsimlanishi va aholi orasida kambag‘allikni avj olishiga xizmat qiladi.



PORAXO'RLIK

Poraxo'rlik – moddiy boylik, muayyan xizmatlar yoki mulkiy manfaat evaziga muayyan harakatlarni bajarish yoki bajarmaslik bilan tavsiflanadi. Poraxo'rlik munosabatlari uch subyektli deb aytish mumkin. Bular: pora oluvchilar, pora beruvchilar va ular o'rtasidagi vositachilar. Pora oluvchilar aksariyat hollarda davlat amaldorlari bo'lsa, uni beruvchilar amaldorlar xizmatiga muhtojlardir. Vositachilar ayrim shaxslar va yashirin tashkilotlardan iboratdir.

Pora olish – ya'ni davlat organi, davlat ishtirokidagi tashkilot yoki fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organi mansabdor shaxsining o'z xizmat mavqeidan foydalangan holda sodir etishi lozim yoki mumkin bo'lgan muayyan harakatni pora berayotgan shaxsning manfaatlarini ko'zlab bajarishi yoki bajarmasligi evaziga shaxsan o'zi yoki vositachi orqali qonunga xilof ekanligini bila turib, moddiy qiymatliklar olishi yoxud mulkiy manfaatdor bo'lishi.

Pora berish – ya'ni davlat organi, davlat ishtirokidagi tashkilot yoki fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organi mansabdor shaxsiga mazkur mansabdor shaxsning o'z xizmat mavqeidan foydalangan holda sodir etishi lozim yoki mumkin bo'lgan muayyan harakatni pora bergan shaxsning manfaatlarini ko'zlab bajarishi yoki bajarmasligi evaziga qonunga xilof ekanligini bila turib bevosita yoki vositachi orqali moddiy qiymatliklar berish yoki uni mulkiy manfaatdor etish.




QALBAKILASHTIRISH

Hujjatlarni qalbakilashtirish – muayyan huquq beradigan yoki muayyan majburiyatlardan ozod etadigan rasmiy hujjatlar, shtamp, muhr, blankalar tayyorlash va foydalanish bilan bog‘liq jinoyat. Asl hujjatlarning shakli va mazmunini o‘zgartirish ham hujjatlarni qalbakilashtirish hisoblanadi. Qonunda bu xildagi harakatlar uchun jinoiy huquqiy javobgarlik belgilab qo‘yilgan.

“Halol-pokiza kishi doimo xotirjamu tinchlikdadir, birovga xiyonatu yomonlik qiladigan kishi esa halokatga giriftordir”

*Abul Qosim Mahmud az-Zamahshariy,
buyuk mutafakkir va olim*

Korrupsiya ko‘rinishlari bilan bog‘liq jinoyatlar kompleks tahlil qilinda shu narsa ayyon bo‘lyapdiki, aksariyat hollarda huquqbuzarliklar asosan tender xarid savdolarida g‘arazgo‘ylik yoki boshqa manfaatlarni ko‘zlab rasmiy hujjatlarga bila turib soxta ma‘lumotlar va yozuvlar kiritishi, hujjatlarni qalbakilashtirish yoki bila turib soxta hujjatlar tuzishi va taqdim etishi orqali sodir bo‘lmoqda. Davlat xaridlari bo‘yicha qalbakilashtirish, savdolar qatnashchilari o‘rtasida til biriktirish, korrupsiya aloqalari mavjudligi va soxta tender (tanlov) savdolari o‘tkazilishi belgilari aniqlansa, bunday savdolar bekor qilinishi qonunchilikda belgilab qo‘yilgan.



REYDERLIK (NOQONUNIY O‘ZLASHTIRISH)

Reyderlik atamasi inglizcha “raider” so‘zidan kelib chiqqan bo‘lib, “bosqinchi”, “qaroqchi” degan ma‘nolarni bildiradi. Reyderlik – korrupsiyaning bir shakli bo‘lib, bunda, o‘zgar mulkini uning ixtiyoriy roziligisiz egallab olish va o‘zlashtirishga aytiladi.

Reyderlikning uch turi mavjud:

Oq reyderlik. Ko‘zlangan kompaniya rahbarlarining xohishiga qarshi bo‘lsada, lekin qonun doirasida amalga oshiriladi. Reyderchilar atayin aksiyadorlar yig‘ilishlarini buzishi va ular o‘rtasidagi nizolarni avj oldirishi, nazorat qiluvchi organlar tomonidan tashkilot ustidan qo‘shimcha tekshiruvlarni uyushtirishi va hokazo.

Qora reyderlik. Bu yerda korxonani egallab olishda qonunga zid usullardan foydalaniladi: bular sirasiga hujjatlarni qalbakilashtirish, shantaj, firibgarlik, mansabdor shaxslarga pora berish va boshqalar kiradi.

Kulrang reyderlik. Noqonuniy va qonuniy faoliyat yoqasida muvozanatni saqlagan holda amalga oshiriladi. Kompaniyani egallab olish qonuniy yo‘llar bilan amalga oshirilishi mumkin, ammo bunday o‘zlashtirishning muayyan bosqichlarida turli huquqbuzarliklar sodir etilishi ehtimoli yuqori bo‘ladi.




“SUYUNCHI”

Zamonaviy jamiyatda bemor yoki uning yaqinlari tomonidan shifokorni rag‘batlantirish hollari tez-tez uchrab turadi, bu holat turli yo‘llar bilan talqin qilinadi. Masalan, tug‘ruqxonalarda muhtojlarga tibbiy yordam ko‘rsatish yoki to‘g‘ridan-to‘g‘ri vazifalarni bajargani uchun samimiy minnatdorchilik tariqasida “suyunchi” ko‘rinishidagi pora beriladi. Ayrim tug‘ruqxonalarda hatto “tug‘ish stavkasi” belgilangan.

Farzand tug‘ilishi bilan oilalarga quvonch va baxt ulashguvchi ushbu shifo maskanlarida bunday maishiy korrupsiya ko‘rinishlariga aslo yo‘l qo‘yib bo‘lmaydi. Zero, har bir ota-ona farzandli bo‘lar ekan, tibbiyot muassasasidan rozi bo‘lib chiqib ketishi kerak. Afsuski, ayrim holatlarda shifokorlarning noqonuniy xatti-harakatlariga guvoh bo‘lamiz. Bunday harakatlar uchun O‘zbekiston qonunchiligida jinoiy javobgarlik belgilangan.





KORRUPSIYAVIY S XEMALAR

Korrupsiyaviy sxemalar – bu qonunni chetlab o‘tishning yo‘llari va shakllari, shuningdek, amaldagi qonunchilikda mavjud bo‘shliqlardan foydalangan holda noqonuniy usullar bilan davlat mulkini talon-taroj qilish orqali tor doiradagi kishilarning misli ko‘rilmagan boyliklarga ega bo‘lishiga aytiladi. Quyidagi shart-sharoitlar natijasida bu ko‘rinishdagi korrupsiya holati namoyon bo‘ladi: jamoatchilik ongida “Pul hamma narsani hal qiladi” degan stereotipning ildiz otishi, noaniq va ortiqcha vakolatlarning berilishi, mansabdor shaxslarning ochko‘zligi, davlat tomonidan keng qamrovli nazoratning yo‘qligi.



T A'MAGIRLIK

Ta'magirlik arabcha "tamaa" so'zidan olingan bo'lib, bir narsani qalbdan kuchli orzu qilishga aytiladi. "Tama qildi" va "hirs qo'ydi" iboralari bir hil ma'noni anglatadi. Ta'magirlik – birovdan bir narsa kutish va uning ilinjida bo'lish; moddiy naf ko'rish, ochko'zlik, boylik orttirishga intilish va shu kabi g'arazli niyatlar bilan qilingan hatti-harakat.

Ta'magirlik amaldorning vakolatlari doirasiga kiradigan litsenziya, maxsus ruxsatnoma yoki boshqa har qanday xizmatlar olishda kimgadir to'sqinlik qilish "yashirin hokimlikka" ega bo'lgan amaldorlar tomonidan qo'llanadi. Agar amaldor tegishli to'lovlar (masalan, soliqlar yoki bojlar) miqdorini baholash vakolatlariga ega bo'lsa, bu ham tamagirlik uchun imkoniyatlar ochib beradi. Davlat xizmatchisi tomonidan tamagirlikka duch kelingan hollarda insonlar pora berish (bu fosh bo'lish xavfi bilan bog'liq) yoki davlat xizmatchisining ustidan ichki yoki tashqi nazorat organiga shikoyat qilishdan birini tanlashiga to'g'ri keladi.

Soddaroq qilib aytganda, tamagirlik – mansabdor shaxs tomonidan fuqaroning qonuniy manfaatlariga zarar yetkazadigan xizmatiga doir harakatlarni sodir etish tahdidi ostida pora talab qilish yoki fuqaroni uning qonuniy manfaatlariga zarar keltiradigan oqibatlarining oldini olish uchun pora berishga majbur etadigan sharoitga qasddan tushirish demakdir. Korrupsiyaviy jinoyatlar faqatgina tamagirlik niyatidagina sodir etilmasdan, nomoddiy maqsadlarni ko'zlashi ham mumkin.



URUG'-AYMOQCHILIK

Urug'-aymoqchilik – xodimning umumiy ajdodga ega bo'lgan muayyan qarindoshga mansubligi asosida uchinchi shaxslarga subyektiv, iltifotli va noholis munosabatda bo'lish tarzidagi shaxsiy manfaati.

Urug'-aymoqchilik yaqin qarindoshlar tushunchasi bilan ham juda ma'nodosh hisoblanadi. Yaqin qarindoshlarga qarindosh yoki quda tomondan qarindosh bo'lgan shaxslar, ya'ni ota-ona, tug'ishgan va o'gay aka-uka va opa-singillar, er-xotin, farzand, shu jumladan farzandlikka olinganlar, bobo, buvi, nevaralar, shuningdek er-xotinning ota-onasi, tug'ishgan va o'gay aka-uka va opa-singillari kiradi.

Davlat hokimiyati yoki mahalliy hokimiyat organi rahbarining o'z qarindoshlari nomzodini davlat xizmatiga tayinlashi holatlari ham mavjud.



VOSITACHILIK QILISH

Pora olish-berishda vositachilik qilish, ya'ni pora olish yoki berish xususidagi kelishuvga erishishga qaratilgan faoliyat, shuningdek manfaatdor shaxslarning topshirig'i bilan porani bevosita berish.

Ushbu xizmatlarga muhtoj bo'lgan shaxs va mansabdor shaxs o'rtasida xizmatlarni ko'rsatish bo'yicha vositachilik faoliyati. (O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 212-moddasi. Pora olish-berishda vositachilik qilish).



DAVLAT XARIDLARI

Davlat xaridi – budget mablag‘lari hisobiga hukumat yoki davlat idoralari tomonidan sotib olinadigan, mamlakatda yoki chet ellarda ishlab chiqarilgan tovarlar va xizmatlar. Bunday xarid davlat tomonidan davlatning o‘z ehtiyojlari (masalan, uskuna-jihozlar, texnika-texnologiyalar sotib olish), aholi iste‘molini ta‘minlash va davlat zaxiralarini (don, oziq-ovqat va boshqalar xaridi) yaratish maqsadlarida amalga oshiriladi. Mamlakatning o‘zida ishlab chiqarilayotgan sanoat tovarlari va yetishtirilayotgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini xarid qilishda davlat ma‘lum narxlar belgilaydi.

O‘zbekiston Respublikasining “Davlat xaridlari to‘g‘risida”gi qonunida davlat xaridlarini amalga oshirish sohasida korrupsiyani oldini olishga doir bir qator chora-tadbirlar ham nazarda tutilgan, jumladan:

- insofli raqobatni va qarorlar qabul qilish chog‘ida holisona mezonlardan foydalanilishini;
- monitoring va nazorat o‘tkazishning, shu jumladan ichki monitoring va nazorat o‘tkazishning samarali tizimi yaratilishini;
- qonunchilik hujjatlari talablarining buzilishi hollari to‘g‘risidagi ma‘lumotlar axborotning ochiq manbalarida e‘lon qilib borilishini.



“AKSILKORRUPSIYA ALIFBOSI”

ATAMALAR VA TUSHUNCHALAR TO‘PLAMI

*Muharrir Dilshod Ibrohimov
Konsultant Dilshod Ostonov
Rassom Sarvar Farmonov
Sahifalovchi-dizayner Alimardon Aqilov
Musahhah Sherzod Axunov*

*© “Muloqot” jamoat birlashmasi, 2022 (muloqot-ngo.uz)
Ushbu to‘plamda keltirilgan ijodiy ishlar bo‘yicha mualliflik huquqi
“Muloqot” jamoat birlashmasiga tegishli. To‘plamdan o‘rin olgan
materiallardan to‘liq yoki qisman foydalanilganda, ulardan iqtibos
keltirilganda “Muloqot” tashkilotiga havola ko‘rsatilishi shart.*

“Muloqot” jamoat birlashmasi
Manzil: 100020, Toshkent sh., Olmazor tumani, Beruniy ko‘chasi, 83 uy.
E-mail: mngouz@gmail.com Veb-sahifa: www.muloqot-ngo.uz
Tel. +998977205197 Faks. +998712495366

*© BMTTD, 2022 (undp.org/uzbekistan)
Ushbu to‘plamda keltirilgan fikr va mulohazalar muallifning o‘z nuqtai nazari
bo‘lib, BMT, shuningdek BMTTD va BMTga a‘zo davlatlarning rasmiy nuqtai nazari
hisoblanmaydi. Biz haqimizda ko‘proq ma‘lumotni undp.org/uzbekistan saytidan
oling yoki @UNDPUzbekistan ijtimoiy tarmoqlarida kuzatib boring.*